



XO'JALIK SUBYEKTLARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI HISOBLASHUV MUOMALALARI TASNIFI

Misirov Asliddin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0008-2742-5398

misirovasliddin@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuvlar turli mamlakatlar hududida joylashgan davlatlar, fuqarolar o'rtasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda vujudga keladigan moliya talabnomalari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va nazorat qilish tizimidan foydalanish jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, iqtisodiy faoliyat, pul vositalari, tashqi iqtisodiy faoliyat, tovar ishlab chiqarish, sotish jarayonlari, hisob-kitoblar.

КЛАССИФИКАЦИЯ РАСЧЕТНЫХ ОПЕРАЦИЙ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ СУБЪЕКТОВ

Мисиров Аслиддин

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы использования системы организации и контроля платежей по финансовым требованиям и обязательствам, возникающим при осуществлении внешнеэкономической деятельности между государствами и гражданами, находящимися в разных странах.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, экономическая деятельность, денежные инструменты, внешнеэкономическая деятельность, товаропроизводство, процессы продаж, расчеты.

CLASSIFICATION OF SETTLEMENT OPERATIONS OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITIES OF COMMERCIAL ENTITIES

Misirov Asliddin

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article examines the processes of using a system for organizing and controlling payments for financial claims and obligations arising during foreign economic activity between states and citizens located in different countries.

Keywords: accounting, economic activity, monetary instruments, foreign economic activity, commodity production, sales processes, settlements.

Kirish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuvlar turli mamlakatlar hududida joylashgan davlatlar, fuqarolar o'rtasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda vujudga keladigan moliya talabnomalari va majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni tashkil etish va nazorat qilish tizimidan iborat. Xalqaro hisoblashuvlarda asosiy vositachilar banklar bo'lib, ular tashqi iqtisodiy siyosat ishtirokchilari bo'lmish o'z mijozlarining pul vositalarini korrespondent hisobvaraqlari asosida mamlakatlararo harakatini ta'minlaydilar. Xalqaro to'lovlarning asosiy qismi naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuvlar holatiga kompleks ravishda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: pul va tovar bozoridagi ahvol, tovarlar, xizmat ko'rsatish va sarmoyalarning mamlakatlararo harakatini davlatlararo tomonidan nazorat choralari samaradorligi, alohida mamlakatlardagi inflyatsiya sur'atlarining turlichaligi, to'lov balansining ahvoli, tashqi savdo bitimlarining shartlari, bank faoliyatining xalqaro qoidalari va o'ziga xos xususiyatlari, valyuta qonunchiligi va boshqalar.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda mualliflar respublikamizda mustaqillik yillarida vujudga kelgan bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni biznes birliklari hamda mos ravishda buxgalteriya hisobi va audit birliklari sifatida turli belgilari bo'yicha tasniflagan va tavsiflaganlar.

Abdullaev va Ismoilovlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tasniflashda 2 ta mezon, ya'ni (1) korxonaning tarmoq yoki sohaga qarashligi; (2) korxonada ishlovchi (band)lar soni olinishi lozimligi e'tirof etganlar. Ular, chunonchi, korxonalarni tarmoq yoki sohaga qarashligiga ko'ra quyidagi 5 ta guruhga ajratganlar: 1. Sanoat, qurilish, transport; 2. Qishloq xo'jaligi; 3. Ulgurji va chakana savdo; 4. Xizmat ko'rsatish va «servis»; 5. Fan va ilmiy xizmat.

Musaev korxona va tashkilotlarni nazorat sub'ekti sifatida quyidagi tashkiliy-huqukiy shakllarga ajratgan: xususiy korxonalar; davlat korxonalari; shirkatlar; ijara korxonalari; qo'shma korxonalar; aksionerlik jamiyatlari; mas'uliyati cheklangan jamiyatlar; dehqon va fermer xo'jaliklari va boshqalar.

Toshmatov (2008) o'zining "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli" monografiyasida korxonalarni biznes, tadbirkorlik birligi sifatidagi tasnifiy asoslarini boshqa olimlardan farqli o'laroq kengroq ochib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuvlarning sub'ekti – bu eksportchilar va banklardir. Ular tovar-pul taqsimlovchi hujjatlar harakati va to'lovlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosobatlarga binoan amalga oshiriladi. Bank qoidalari va an'analari ham katta ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisob-kitoblarning turli shakllari mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan keng qo'llaniladi.

Tovar ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonlarining baynalmilallashuvi, xalqaro hisob-kitoblarning mazmunida yangi o'zgarishlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xalqaro hisob-kitoblar keng qamrovli bo'lib, u eksport-import operatsiyalari, tijorat tusiga ega bo'lmagan to'lovlar – sayyohlik, sport, fuqarolar tomonidan xorijiy davlatlarga pul o'tkazishlar, xorijiy davlatlarga diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, o'zga davlatlar hududida harbiy qismlarni saqlash hamda kapitallar va kreditlarning harakati bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi.

Har kuni jahon valyuta bozorlarida 3-3,5 trln. AQSh dollari miqdorida xalqaro hisob-kitoblar amalga oshiriladi.¹ Shuning 40% i AQSh dollarida amalga oshiriladi. Dunyo bo'yicha jami konversiyon operatsiyalarning 90% i 5 ta valyutada amalga oshiriladi. Jumladan:

1. AQSh dollari (USD) – 40%;
2. Evro (EURO) – 30%;
3. Yaponiya ienasi (JPY) – 15%;
4. Angliya funt-sterlingi (GBP) – 8-10%;
5. Shveytsariya franki (CHF) – 1-2%.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalari 2 guruhga bo'linadi:

I. Hujjatlashtiriladigan to'lovlarga:

1. Hujjatlashtirilgan akkreditiv;
2. Inkasso bilan amalga oshiriladigan hamma to'lovlar kiradi.

II. Hujjatlashtirilmaydigan to'lovlarga:

1. To'lov topshiriqnomasi;
2. Cheklar;
3. SVIFT (SWIFT) kiradi.

Hujjatlashtirilmaydigan to'lovlarni turkumlashda mezon shartlarini to'lov shartlari o'taydi. Agar har qanday hisob-kitob quyidagi 3 to'lov asosida amalga oshirilsa, bu hujjatlashtirilmaydigan hisob-kitob bo'lib hisoblanadi:

1. Oldindan to'lash;
2. Tovarni olgandan so'ng to'lash;
3. Ochiq hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar.

Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakli sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin (Egamberdieva, 2019):

1. To'lov topshiriqnomalari;
2. Cheklar;
3. Hujjatlashtiriladigan akkreditiv;
4. Inkasso.

To'lov usullarini batafsilroq ko'rib chiqamiz:

Ochiq schyotga to'lov (clean payment) – sotuvchi tovarni to'lov kafolatlarisiz etkazib bersa, xaridor to'lov kunida pulni o'tkazadi. Sotuvchi xaridor tomonidan hech qanday kafolat olmaydi. Shuning uchun bunday to'lov shartlari bir mamlakat hududida va bir-birini yaxshi bilgan firmalar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

Hujjatlar topshirilgandagi to'lov (cash against document) – inkasso. Tovarni etkazgandan keyin eksportchi o'z bankiga hujjatlarni topshiradi. Bank, o'z navbatida, ularni importchi bankiga yuboradi. Importchi banki bu hujjatlarni, to'lovni amalga oshirib, importchiga topshiradi va eksportchi bankiga uning schyotiga to'lov summasi o'tkazganligi haqida xabar beradi. Shundan keyin eksportchi banki eksportchi bilan hisoblashadi.

Inkasso operatsiyalari ancha sodda bo'lib, tovar uchun to'lovni kafolatlaydi, chunki tovar xaridorga to'lov amalga oshirilgandan keyingina o'tadi, lekin bu usul ayrim kamchiliklarga ham ega. Uning eng asosiysi tovar yetkazish, hujjatlarni bankka topshirish va to'lovni amalga oshirish o'rtasida anchagina vaqtning o'tishidir. Natijada eksportchi bozordagi talab va taklifning o'zgarib qolishi, xaridorning kerak vaqtda to'lovga qodir bo'lmay qolishligi kabi xavflarga duch kelishi mumkin.

Akkreditivning tovar uchun to'lash majburiyatlari akkreditiv ochilgan bankga topshirilishini bildiradi. Bu eksportchi uchun ko'proq afzallikka ega bo'lgan to'lov usuli, chunki u to'lovning ishonchliligini ta'minlaydi va eksportchini siyosiy va valyuta xavflaridan saqlaydi. Aksincha, importchi uchun bu usul foydali emas, chunki mablag'lar akkreditivda to'planib, muomala jarayonini sekinlashtiradi. Akkreditiv ochish bo'yicha xarajatlar importchi hisobiga qoplanadi. Bankning mukofot puli bu holda inkassodan yuqori bo'ladi.

¹ <http://www.fxclub.org/>

Akkreditivning turlari (Qurbanov, Misirov, 2019):

- ochiq akkreditiv. Bunda xaridor yoki uning banki tomonidan akkreditiv bekor qilinishi mumkin. Bunday usul sotuvchiga hech qanday foyda va kafolat bermaydi;
- chaqiriqsiz akkreditiv. Bunda akkreditiv eksportchining roziligisiz muddatdan oldin bekor kilinishi mumkin emas va shuning uchun bu usul eng keng tarqalgan;
- chaqiriqsiz, tasdiqlangan akkreditiv. Bunda xaridor o'z bankiga sotuvchining banki orqali akkreditivni tasdiqlashga ruxsat beradi, ya'ni sotuvchining banki to'lov shartlarini bajarishga kafolat beradi;
- chaqiriqsiz, tasdiqlanmagan akkreditiv. Bunda sotuvchining banki akkreditiv ochilishi haqida axborot beradi, lekin o'zi tasdiqlamaydi, ya'ni to'lovni kafolatlamaydi. Bu holda majburiyatlarni bajarish mas'uliyatini xaridorning banki o'z zimmasiga oladi.

Akkreditiv ochish muddati tovar turiga, uni saqlash sharoitiga bog'liq. Har qanday eksportchi uning ilgariroq, ochilishiga va uzoqroq muddat harakat qilishiga intilishi kerak.

Akkreditiv tovarning faktura qiymatiga kredit foizi qo'shilishidan hosil bo'lgan summa miqdorida ochiladi. Bunda tovar hajmi ko'proq bo'lganda ham, tovar uchun berilgan schetlar akkreditiv summasidan yuqori bo'lishi mumkin emas, aks holda ular tulanmay qoladi.

Bank o'tkazmalari va cheklar kredit bo'yicha qarz to'planayotganda, bo'nak berilishida, reklamatsiyalar hal kilinayotganda ishlatiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalarini amalga oshirish bo'yicha birinchi o'rinni tijorat banklari egallaydi. Sababi shundaki, xalqaro operatsiyalarning asosiy qismi – tashqi savdo operatsiyalari va kapitallar hamda kreditlarning harakati bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblarga to'g'ri keladi. Ushbu hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tijorat tuzilmalariga kredit-hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega emas. Demak, tijorat banklari orqali tijorat tusidagi operatsiyalarning asosiy qismi amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda xalqaro hisob-kitoblarda eng keng qo'llanuvchi beshta davlatning milliy valyutasini ko'rsatish mumkin (1-jadval).

1- jadval

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha hisoblashuv muomalalarida qo'llanuvchi asosiy valyutalar 2019 yil I chorak

№	Valyutalarning turlari	Tashqi savdo bo'yicha hisob-kitoblarda salmog'i, % da	Valyutalarning xalqaro miqyosda tan olingan belgilanishi	Valyutalarga nisbatan qo'llanuvchi koeffitsientlar
1	AQSh dollari	40	USD	1
2	Yevro	30	EURO	100
3	Yaponiya ienasi	15	JPY	100
4	Buyuk Britaniya funt-sterlingi	8-11	GBP	1

Manba: <http://www.fxclub.org/>

Tashqi savdo shartnomasining quyidagi to'rt moliya – to'lov shartini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Baho valyutasi;
2. To'lov valyutasi;
3. To'lov sharti;
4. Hisob-kitob shakli.

Baho valyutasi – bu tovarning bahosi o'lchanadigan valyuta. Ushbu valyutani tanlashda tovarning turi, hukumatlararo shartnomalarning shartlari va valyutaning barqarorligi hisobga olinadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shartnomada ko'rsatilgan baho tarkibiga tovarlarni ishlab chiqarish, uni yuklash, import qiluvchi mamlakat portiga tushirish, omborxonalarga joylashtirish, import qiluvchiga uni etkazib berish xarajatlari kiradi. Tovarlar bahosini shartnomada belgilashning 5 asosiy usuli mavjud:

1. Qat'iy belgilangan baholarni o'rnatish. Ushbu baho shartnoma imzolayotgan vaqtda o'rnatiladi va shartnoma ijro etilishi mobaynida o'zgarmasdan qoladi.

2. Tovarlar bahosini shartnoma imzolayotgan paytda yuzaga kelgan bozor bahosida hisobga olish. Agar xom-ashyo eksport qilinayotgan bo'lsa, ularning biron-bir tovar birjasida xorijiy bahosi asosida shartnoma ijro etiladi.

3. Baho qat'iy belgilab qo'yilishi. Ammo shartnoma imzolanayotgan paytda tovarlarning bahosi keskin o'zgarsa, belgilangan baho o'zgartiriladi.

4. Tovarlar bahosi qat'iy belgilab qo'yiladi, ammo xarajatlar tarkibida o'zgarish bo'lgan taqdirda belgilangan baho o'zgartiriladi. Bu usul ko'pchilik hollarda, asbob – uskunalarni sotishda qo'llaniladi.

5. Aralash shakl. Tovarlarning ma'lum qismi qat'iy belgilangan baholarda, ma'lum qismi o'zgartiriladigan baholarda sotiladi.

Tovarlarning sifatini shartnomada aniqlab olish tovarning xarakteristikasini belgilash, ya'ni uning xaridor talabiga muvofiq yaroqliligini belgilashdir. Sifatni aniqlash usuli tovarning xususiyatlaridan xalqaro savdoda ushbu tovarga nisbatan shakllangan amaliyotdan kelib chiqib belgilanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Bakiyeva X., Rizayev N. (2007) *Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami*. -T.: TMI.
Egamberdieva S.R. (2019) *Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma*. - T.: Fan va texnologiya, - 289 b.

Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. (2019) *Buxgalteriya hisobi: Darslik / - T.: "Iqtisod-Moliya", -624 b.*

Qurbanov Z., Misirov K. (2019) *Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, - 751 b.*

Toshmatov Sh. (2008) *Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, -204 b.*

Urazov K.B. (2004) *Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent.*

Urazov K.B. (2011) *Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: 5340900-buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik/ K.B.Urazov S.V.Vaxidov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat Iqtisodiyot un-ti, Samarqand iqtisodiyot va seryis in-ti. -T.: Adib, - 496 b.*